

O'QUVCHILARNI IJTIMOYIY-SIYOSIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
TARBIYA FANINING O'RNI.

Baratova Hulkar Panji qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti 201 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarda ijtimoiy siyosiy kompetensiyalarini shakllantirishda ularning ijtimoiy siyosiy jarayonlar hamda turmush sohasidagi siyosiy faollik shaxsning ijtimoiy-siyosiy, madaniy - ma'rifiy jarayonlardagi, shaxsiy hayotdagi faoliyatida namoyon bo'lishi xususida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy-huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy, huquqiy manfaatlar, ijtimoiy kompetensiya, psixologik kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya.

Аннотация. В данной статье дана информация о формировании социально-политической компетенции учащихся общеобразовательных школ, и о проявлении общественно-политической и политической активности в сфере жизнедеятельности человека в общественно-политических, культурно-образовательных процессах, личной жизни.

Ключевые слова: социально-правовые, социально-политические, социально-экономические и социокультурные, правовые интересы, социальная компетентность, психологическая компетентность, социальная компетентность.

Annotation. This article provides information on the formation of the socio-political competence of students in general education schools, and on the manifestation of socio-political and political activity in the sphere of human life in socio-political, cultural and educational processes, personal life.

Keywords: socio-legal, socio-political, socio-economic and socio-cultural, legal interests, social competence, psychological competence, social competence.

Insonning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi o'ta dolzarb bo'lib, buni yaqinda O'zbekistonda va undan tashqarida olib borilgan ko'plab tadqiqotlar tasdiqlaydi. Mazkur muammoning mutlaq murakkabligi va uning amaliyot uchun ahamiyati ijtimoiy-siyosiy kompetensiyani shakllantirish masalasini ko'rib chiqish bilan bevosita bog'liq bo'lgan ko'plab asarlarni yozishga turtki berdi. Shu bilan birga, hozirgi kunda mavjud bo'lgan ijtimoiy kompetentlikni oshirish usullari (ma'ruzalar, o'quv mashg'ulotlari, bosma materiallar, turli ta'lim va ma'rifiy dasturlar va boshqalar) har doim ham o'smirning qiziqishlari va moyilligini, ayniqsa ularning yoshini etarlicha hisobga olmaydi. Bundan tashqari, ular har doim ham zamonaviy jamiyatdagi vaziyatning murakkabligini aks ettiravermaydi. Ko'pincha ular qismlarga bo'lingan bo'lib, birinchi navbatda ijtimoiy kompetentlikning ayrim jihatlarini rivojlantirishga qaratilgan, hamma uchun ochiq emas va ularni amalga oshirish uchun katta vaqt va mablag' talab etiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni

eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz"- deb ta'kidlab o'tganlar [1].

Bugungi kunda "Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart!" degan hayotiy da'vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o'rin egallagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarda ijtimoiy kompetentsiyalarini shakllantirishda ularning ijtimoiy siyosiy faolligini imkoniyat doirasini kengaytirib boradi. Chunki bu jarayonda yangi ehtiyojlar va imkoniyatlar paydo bo'ladi, ehtiyoj qondirish yo'lida faol harakat vujudga keladi.

Ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'quvchi-yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokining mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatini kuchayishi qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarni to'liq amalga oshirishga intilishi tushuniladi. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy faol shaxsning o'z o'rnini topishi va xulq atvorini ongli ravishda boshqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar madaniyat hamda turmush sohasidagi faollik shaxsning ijtimoiy-siyosiy, madaniy - ma'rifiy jarayonlardagi, shaxsiy hayotdagi faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy-siyosiy kompetensiya shaxsning ijtimoiy makonda takomillashuvi deb hisoblasak, xususan, ta'lim muassasasining tarbiyaviy muhiti insonning ijtimoiy xatti-harakatlarini modellashtirib, unga sub'ektiv o'zini o'zi anglash tajribasini olish, ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Tarbiya muhiti orqali ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida aynan shu pozitsiya muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijtimoiylashuvi jarayonining natijasi, ya'ni maktab va atrof-muhitning haqiqiy o'zaro ta'siri natijasi o'laroq uning yangi darajadagi ijtimoiy kompetensiyasi yuzaga keladi. Shunda ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda zamonaviy maktab uchun muhim pedagogik vazifalardan biriga aylanadi.

O'quvchiga ta'sir ko'rsatadigan mikroomillarga oila, tengdoshlar, mikrojamiyat, turli ta'lim va tarbiya tashkilotlari kiradi. Maktab o'rta maktab o'quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonida faol ishtirok etishi, ro'yxatdagi mikroomillar bilan o'zaro aloqada bo'lishi, ularning o'quvchi shaxsiyatini shakllantirishga bevosita ta'sirini hisobga olgan holda faol ishtirok etishi zarur. Maktab ta'lim muassasasi sifatida jamiyatning tartibini - ma'lum bir jamiyat, davr talablariga mos keladigan shaxsni shakllantirish, yosh avlodni ular yashashi va ishlashi uchun ijtimoiy sharoitlarni maksimal darajada hisobga olgan holda tarbiyalash, o'qitish va tarbiyalashni amalga oshiradi.

Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan taraqqiyot yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. O'quvchilarning ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarini qay darajada bilim, ko'nikma va malakalarni egallaganligida ko'rinishini asoslamoqda. Agar yoshlar ijtimoiy siyosiy faol fuqaro sifatida siyosiy jarayonlarga to'g'ri munosabat bildira olsa, vatanini sevsa, uni ardoqlasa, fuqarolik burchi va ma'suliyatini dildan his etib foliyat yuritsa, o'zining insonparvarligi, bilimdonligi, ma'naviy - axloqiy fazilatleri hamda yuksak madaniyati

bilan ibrat-namuna ko'rsata olsa, bunday talaba ijtimoiy faol shaxs sifatida o'zini namoyon eta oladi [2].

O'quvchilarning ongi va qalbi uchun kechayotgan kurash globallashuv jarayonida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini pedagogik o'rganish davri etib kelganligi va bunga oid ijtimoiy pedagogika faniga bo'lgan extiyojni davrning o'zi taqazo etayotganligini pedagog olimlarimizdan

M. Quronov alohida ko'rsatib o'tgan:

- ijtimoiy burch, ijtimoiy ma'suliyat, ya'ni bolalarga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmat ko'rsatish aspektlari haqida ma'lumot berish;

- ijtimoiy xuquqiy yordam, ya'ni bolalarga jamiyat a'zolariga o'z haq - xuquqlarini anglashga yordam berish;

- ijtimoiy reabilitatsion xizmat, ya'ni insonlarning ma'naviy-ahloqiy, emotsional, ruhiy holatlarini tiklashga yordam beradi[3].

Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil mamlakatimiz hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

Tarbiyaning pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyasiga muvofiq, endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ekti sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin.

O'quvchilarda ijtimoiy-siyosiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik parametrlarini rivojlantirish eng avvalo, ularda siyosiy muammolardan xabardorlik, muammoni ko'rish va uni hal qilish qobiliyatiga bog'liqligini ko'rsatib, bu esa, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini ijtimoiy-siyosiy kompetensiyasini shakllantirish mamlakatimizda zamonaviy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida shaxsni aynan tarbiya olayotgan muhitida uning sub'ektiv o'z-o'zini anglashi jarayonida etakchi vazifalarni bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi // Xalq so'zi. – 2016 yil. – 15 dek.

2. Abdukarimov H. – Tarbiyachi va tarbiyachilik kasbining ijtimoiy mohiyati Xalq ta'limi. – Toshkent, 1996. №6, -B. 9-12.

3. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma'naviyat, 2007. – 240 b.